



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH
VA BANDLIK VAZIRLIGI HUZURIDAGI
TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI AGENTLIGI
BUYRUQ**

"29" yanvar 2024-yil

27-son

Toshkent shahar

**Tashqi mehnat migratsiyasi agentligida
favqulodda vaziyatlarni oldini olish va
fuqaro muhofazasi bo'yicha tayyorgarlik
holati hamda ushbu sohadagi ishlarni
samarali tashkil qilish to'g'risida**

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligida favqulodda vaziyatlarni oldini olish va fuqaro muhofazasi bo'yicha tayyorgarlik holati hamda ushbu sohadagi ishlarqi samarali tashkil qilish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 29-apreldagi 171-son qaroriga asosan, Mehnat migrantlariga huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'limi yetakchi mutaxassisi Kadirov Alisher Sobirjonovichga 2024-yil 1-fevraldan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligida fuqaro muhofazasi bo'yicha qo'shimcha vazifa yuklatilsin.

2. Mas'ul xodim A.Kadirovga:

a) Agentlikda fuqaro muhofazasi bilan bog'liq tadbirlarni tashkil etish va yong'inga qarshi kurashish, kuch va vositalarini doim ishchi holatda saqlanishini nazorat qilish;

b) Agentlikda yuz berishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni oldini olish, sodir bo'lgan vaziyatlarda bartaraf etish rejasini ishlab chiqish;

c) Favqulodda vaziyatlar yuz berganda ishchi xodimlarni xavfsiz hududlarga ko'chirish va binoni tark etish evakuatsiya rejalarini ishlab chiqish;

d) Agentlikda favqulodda vaziyatlar yuz berganda yoki yuz berish havfi yuzaga kelganda fuqaro muhofazasi tuzilmasini tashkil etish va tashkiliy tuzilmaga umumiy rahbarlik qilish;

e) Fuqaro muhofazasi bo'yicha tashkiliy tuzilma tarkibidagi xodimlarini o'qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tadbirlari hamda xodimlar bilan birgalikda har yarim yilda uyushgan holda taktik o'quv-mashg'ulotlarni amalga oshirish;

f) Agentlikda fuqaro muhofazasini tashkil etish bo'yicha yuqori turuvchi tashkilotlardan kelib tushgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash va doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish yuklatilsin.

3. Moliya-iqtisod bo'limi (R.Shoqodirov) 2024-yil 1-fevraldan boshlab, A.Kadirovga o'zining asosiy ish bilan bir qatorda qo'shimcha vazifa yuklanganligi sababli, unga yetakchi mutaxassis lavozim maoshining 50 (ellik) foizi miqdorida qo'shimcha haqni to'lasin.

4. Agentlikning 2023-yil 10-fevraldagi 33-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Boshliq

J.Xidayxodjayev

